

## «JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH JIHATLARI»

*Abdullayev Erkin Shuhratovich*

*Jizzax viloyati Jizzax shahri 15 umumiy o'rta ta'lim maktabi*

*Jismoniy tarbiya o'qituvchisi*

**Annontatsiya;** Maqolada jismoniy tarbiya va sport darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati, dunyoqarash hamda tafakkur ko'lamini hosil qilish, jismoniy, ma'naviy va axloqiy sifatlarni shakllantirish bo'yicha ayrim tavsiyalar berilgan muxokama qilingan.

**Kalit so'zlar:** sport, pedagogik texnologiyalar, uslublar, mezonlar, amaliy ,rivojlanish,harakat,texnologiya,samara,fan,uslub,aniqlash.

O'qituvchilar o'qitish uslublarini mujassamlashtirgan holda, mashg'ulotlar o'tkazishga tayyorlanishi, turli o'quv qurollaridan samarali foydalanishi hamda o'quv rejasi va dasturlarini metodologiyasini ochib berishi lozim. Biroq, shuni unutmaslik lozimki, o'qitish va o'rgatish jarayonlarini boshqarish, mavjud o'quv vositalaridan samarali foydalanish va o'quv mashg'ulotarida o'quvchilarga imkon qadar manfaatli bo'lishini ta'minlash va shu kabi boshqa ko'pgina vazifalar o'qituvchining zimmasiga to'liq yuklatiladi. Fanlarni o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish;o'qituvchi o'qitish va o'rgatish, shuningdek, mavjud imkoniyat va sharoitlardan unumli foydalanish uchun mas'ul shaxs hisoblanadi. Bu vazifani bajarish uchun o'qituvchi o'qitish jarayoni hamda o'qitiladigan fanlarning ilmiy va texnik jihatlarini to'liq bilishi lozim. Bundan maqsad shuki, o'qitish uslubi shunday yo'lga qo'yilsinki, bunda o'quvchilar o'qitilayotgan fanni to'liq o'zlashtira olishsin.

O'qitish uslubini aniqlash yo'llaridan biri bu yuqorida keltirilgan oltita omilning har biriga tegishli bo'lgan savollar ro'yxatini tuzishdir. Ta'kidlash joizki, har bir tarkibiy qism talablarining to'liq bajarilishini ta'minlash hamda unga amal qilish

tanlangan o'qitish uslubining samaradorligini oshiradi. Jismoniy tarbiya va sport darslarida o'qitish uslublarini mujassamlashtirgan holda, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash samaradorligini oshirish metodi va vositalari. Hozirgi kunda barcha pedagoglar singari jismoniy tarbiya o'qituvchilariga ham darslarni zamonaviy pedagogik talablar asosida tashkil etish, darsga innovatsion yondashuvni, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishni dars davomida shakllantirish kabi ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanishni talab etadi. Jismoniy tarbiya darslari jarayonida o'quvchilarning o'qish motivini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki motiv o'quvchilarni ta'lim jarayoniga qiziqtiradi, o'quvchilarning darsga faol qatnashishga, bilimlarni egallashga undaydi. Interaktiv metodlar o'qish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi. Hozirgi davrda ta'limning eng muhim vazifalaridan biri pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilishdir. Jismoniy tarbiya darslari jarayonida o'qish motivlarini har tomonlama o'stirishga e'tibor qaratilsa o'quvchilarning bilim o'zlashtirish jarayonlari samarali bo'ladi. Jismoniy tarbiya tizimini takomillashtirish zarur. Bu tizim o'quvchi – o'qituvchi hamkorligi asosida o'quvchilarning erkin fikrlashiga yo'l ochib berishga qaravilmog'i lozim. Jismoniy tarbiya darslari jarayonida modulli o'qish usulidan foydalanilsa o'quvchilarning erkin, mustaqil fikrlashiga keng yo'l ochiladi. Jismoniy tarbiya darslarida biz yuqorida tavsiya etgan ish tizimidan foydalansa kutilgan samaraga erishish mumkin, deb hisoblaymiz.

Jismoniy madaniyat va sport ta'lim maqsadlari uchun axborotlashtirish va aloqa vositalari - bu ularni o'qitish, uslubiy, me'yoriy-texnik, tashkiliy va o'quv qo'llanmalar bilan birgalikda foydalaniladigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan, ularni pedagogik foydalanishning eng maqbul texnologiyasini amalga oshirishni ta'minlaydi. Jismoniy tarbiya va sportdagi dasturiy ta'minot va pedagogik vositalar - bu ma'lum bir predmet sohasini aks ettiruvchi dasturlar, uni o'rganish texnologiyasi u yoki bu darajada amalga oshiriladigan, ta'lim jarayonining turli xil tayyorgarlik jarayonida, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, ta'limni rivojlantirish ko'zda tutiladi. Zamonaviy dasturiy ta'minot va o'quv vositalari multimedia texnologiyalari asosida amalga oshiriladi. Elektron darsliklar - darslik haqida yoki

to'liq o'rnini bosadigan va ushbu nashr turi sifatida rasman tasdiqlangan o'quv elektron nashr. Jismoniy tarbiya va sportdagi telekommunikatsiya texnologiyasi - bu har qandayshaklda taqdim etilgan axborotni qayta ishlash, axborot almashish, tashish va efirga uzatish texnikasi, usullari, usullari va vositalarining to'plamidir. Jismonan baquvvat, sog'lom, irodali va ruhan tetik farzandlarni kamolga yetkazishda jismoniy tarbiya fanining ahamiyati nihoyatda katta. Dars jarayonidagi nazariy bilimlar o'g'il-qizlarni ruhiy kamolotga yetaklab, ma'nan chiniqtiradi, ziyrakligi va zukkoligini yanada oshiradi. Ta'lim jarayonida o'quvchilar shaxsiy va ovqatlanish gigiyenasi, kun tartibini rejalashtirish, ertalabki badantarbiya mashqlarining ahamiyati haqidagi bilimlarga ega bo'ladilar. Amaliy mashg'ulotlardagi jismoniy mashqlar esa o'quvchini toblaydi, harakat imkoniyatlarini kengaytiradi. Yugurish, sakrash, uloqtirish mashqlari orqali bolaning jismoniy sifatlari kengayib, sport anjomlaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmasi shakllanadi. Ta'lim jarayonida ushbu jihatlarning to'liq namoyon bo'lishi xalqaro nufuzli sport musobaqalarining bo'lajak g'oliblarini tayyorlashda asqotadi.

Demak, jismoniy tarbiya darslarini qiziqarli, mazmunli tashkil etish uchun har bir o'qituvchi yanada ma'suliyatli, yangilikka intiluvchan, ilg'or metodlarni qo'llash mahoratiga ega bo'lishi zarur. Bu esa pedagoglarimizning zamonaviy innovatsiya va metodlarni o'zlashtirgan holda yangi o'quv yiliga puxta tayyorlanishini talab etadi.

Umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini ulotlarining samaradorligi sport anjomlarining yetarliligi va sifati bilan bog'liqdir. Shunday ekan, fan o'qituvchisi kelgusi o'quv yiliga tayyorgarlik jarayonida dastlab maktabdagi sport inventarlarining to'liqligi hamda yaroqliligini ko'zdan kechirib olishi, ta'lim muassasasi ma'muriyati bilan ularning ta'minoti bo'yicha choralar ko'rishi lozim. Olib borgan tadqiqotlarimiz bitiruv malakaviy ishimiz farazining to'g'riligini isbotladi. Ya'ni jismoniy tarbiya darslarida pedagogik texnologilar joriy etilishi, o'qish motivlarini har tomonlama rivojlantirilishi, pedagogik texnologiyaning mohiyatini anglatishga erishilishi, unga doir bilim, ko'nikma va malakalar chuqur egallanilishi va ular ta'lim amaliyotida muvaffaqiyatli qo'llanilishi jismoniy tarbiya darslari jarayonida yuqori samaradorlikka erishishni ta'minlaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI;

1.Piraxunova F.N., Nazirov A.X. O'qitishning yangi pedagogik texnologiyalari. Uslubiy qo'llanma. -T.: "IQTISOD-MOLIYA" 2008, 3-48 bet. 2.O'zbekiston Respublikasida Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. "O'zbekiston", Toshkent, 1997.

2.Karimov I. A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. T.16. – Toshkent: O‘zbekiston, 2008. – 368 b.

3.Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008. – 176

4“Ta’lim to’g’risida” gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. “Toshkent”, 1997

5.Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: 2003. -